ERTAKLARNING GO'ZAL OLAMI

(Shafoat Termiziy ijodi misolida)

Muxtorova Mahfuza Shavkatjon qizi

TerDU o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Shoirning she'rlarida mumtoz she'riyatimizda folklordan ijodiy oziqlangan xalqimizga xos bo'lgan etnografik folklor rusumi tasvirlangan. Qadimda insonlar sig'inib bajargan rasm-rusumlar haqida keng to'xtalib o'tgan.

Kalit so'z: "Mening Avestam" , "Oychalqar qashqirlari", Humo, semurg', qaqnus obrazlari.

Shoir ijodida "Oychalqar qashqirlari" nomi bilan yozilgan, jamiyatdagi ma'naviy axloqiy masalalar tasvirlangan zamonaviy ertak mavjud. Ushbu ertakda qashqir timsolida o'z hirsiga qul bo'lib, iffat va hayosidan kechgan, qiz va yigitning benomusligi, ular bir kunlik aysh ishrat deb o'z hayotini barbod qilishi tasvirlanadi. Ularning fojiali halokati axloqsiz qilmishiga guvoh bo'lgan keksa otaxonning iztirobli holati she'riy yo'lda hikoya qilinadi.

Oychalqar qutlar har tun jamiyat qashqirlarin,

Ular uvlar, yalashar, tarashar bir-birlarin.

Majoziy qo'llanilgan qashqirlar obrazi shoirning jamiyatdagi nopok kimsalarga bergan kinoyavaiy va isehzoli nomidir.

Shoir she'rlarida o'zbek xalq ertaklarida uchraydigan qushlar obrazi, jumladan boshga qo'nadigan davlat qushi, baxt qushi – Humo, semurg', qaqnus obrazlari ham uchraydi. Umuman humo qushi o'zbek xalq eposi va ertaklarida davlat qushi, tole qushi sifatida talqin etilib, bu qushning soyasi kimning boshiga tushsa, o'sha kishining baxtli bo'ladi, degan aqida mavjud. Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda folklordan ijodiy oziqlangan shoirlarimiz she'rlarida, jumladan Navoiyning "Lison ut tayr" asarida ushbu obraz ishtirok etadi. Istiqlol she'riyatida humo qushi Erk, ozodlik timsoli sifatida shoirlarimiz tomonidan keng istifoda etildi.

Hurriyating - Humo qushing hilpiragan yaloving,

Mangu so'nmas Istiqloling — qalbda yoniq oloving.

Erk tarannumi kuylangan she'rlarda shoir mustaqil davlatimizning ramzlari qatorida qabul qilingan Humo obrazini faxr va ixtixor, mustaqillik g'ururi va shoni sifatida tasvirlab, istiqlolga tashna xalqning buyuk dardini she'rga ko'chiradi:

O'zbekiston bo'lajak Xudo xushlagan Vatan,

Vatanki Tug', Tug'rosin humo ush lagan Vatan.

Shuningdek, shoirning muhabbat mavzusida yozilgan she'rlarida mumtoz adabiyotimizda yirik shoirlar ijodida uchraydigan – Qaqnus, Semurg' kabi qusshlar obrazi qo'llaniladi. Ma'lumki, mazkur qushlar obrazi mutoz adabiyotimzda ham, zamonviy she'riyatimizda ham qo'llaniladi. Qaqnus obrazini biz A. Navoyning mashhur "Lison ut tayr" ("Qush tili") asarida

o‘qiganmiz. Dunyo xalqlarida bu qush Fineks nomi bilan tanilgan. “Sidqiy Xondaliqiy tarjimasidagi “Ajoyib ul-maxluqot" asarida yozilishicha: "Uning jufti, farzandi bo‘lmas emish. Tumshug‘idagi behisob teshiklar- dan sehrkor ohanglar yangrar ekan Nihoyat, tumshug‘idagi teshiklardan va qanotidan o‘t chiqib, o‘tinga tushar va o‘zi ham kulga aylanarmish. Kuldan esa tuxum va bu tuxumdan yosh Qaqnus paydo bo‘lar ekan. Kuy va arg‘anun (organ) musiqa asbobi uning ovoziga taqlidan kashf etilagan emish". Shoir “Qaqnus” she’rida uning ayni shu jihatlarini e’tiborga olib, lirik qahramon shoirning yaqin hamdami sifatida ushbu obrazga murojaat qiladi.

Qoralar ichida oqqush qaqnusim,

Galalar ichida toqqush qaqnusim,

Riyolar ichida haqqush qaqnusim,

Oqqushim, toqqushim, haqqush qaqnusim.

Shoirning qahramoni uni “Tiling sayroqda-yu qalbing yig‘ida”, Subhu savtlaringdan chekilsin zulmat, Naqshi psshravingdan surilsin illat, Ey musiqiy davlat - iloqiy millat” deya ta’riflashidan aslida qush obrazi emas, qaqnus timsolida vatan timsoli mujjassamlashgan, degan xulosa keladi. Uning o‘tli muhabbat lirikasiga mansub “Fig‘on” she’rida yuqorida nomlari tilga olingan afsonaviy qushlar obrazlarining birgalikda qo‘llanilgani, bu esa lirik qahramon oshiq holatini yanada kuchaytirib ta’kidashga xizmat qilgani ayonlashadi.

Men tole izlab talpindim davronim simurg‘iga,

Kel, *Humo*, boshimga qo‘n, deb ko‘ndirolmayman, netay.

Ezgulik o‘tin yig‘urda minqorimda qrn sharor,

Qonli xirmon – *qaqnus* jonim yondirolmayman, netay.

Shoir ijodidagi yana bir jihat uning she’rlarida teomifologik obrazlarning qo’llanilishi ham kuztiladi. Ayniqsa, ajdodlarimizning diniy tasavvurda ilohiylashtirilgan olam (koinot), to‘rt unsur: suv, havo, tuproq va olov; do’zax, jannat, farishta, shayton kabi obrazlari shular jumlasidandir. Uning “Mening Avestam” turkumida dastlab koinotning ilohiy yaratilishi hamda to‘rt unsur monologi beriladi. Shoir olamning yaratilishi haiqda koinot monologida yozarkan, unda insonning ba’zi qilmishlari kulguli bo‘lsa-da, ilk tasavvur va xayolot mahsuli sifatida saqlanib qolgani, bugungi fan inqilobining natijalari so‘zsiz insoniyat koinotni zabt etgani haqida so‘z yuritadi.

Yulduzlar ravshanroq porlagandakim,

Bu menga zafar deb qildim jang-jadal.

Mangu fonuslarim — Oy ham Quyoshim,

Gohida to‘satdan qolsa tutilib.

Ularga xarixoh qozonlar chaldim,

U qora balodan ket deb qutilib.

Shoirning ushbu satrlarda xalqimizga xos bo‘lgan etnografik folklor rusumi tasvirlangan. Ya’ni qadimda Oy yoki quyosh tutilishi hodisasi ro‘y bergan vaqtda odamlar bu hodisaning tezroq tugashini istab, qora qozonlarini chalganlar. Shoir o‘tmish insonlardagi mazkur odatni keltirish orqali insonyatning aql tafakkuri koinot tilsimlarini yechaolganini, insoniyat taraqqiyotining tadrijini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Т., 1994. – Б.43.;
2. Шарипова Л.Ф. 80-90-йиллар ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номзоди .дисс.афтореф. – Т., 2008; – В.20.
3. Madayev O. Alpomish bilan suhbat. – Toshkent: Ma’naviyat. – 1999. – B. 13.
4. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – B. 16.